

Samarqand viloyatining chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi

2026-yil yanvar dastlabki ma'lumot

- I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI
- II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI
- III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI
- IV. METAMA'LUMOTLAR
- V. ALOQADOR BOSHQA HAVOLALAR

I.CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI


2026-yil 1-fevral holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 10 779 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 44 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 10 735 tani tashkil qildi.

2026-yilning yanvar oyida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 2 549,5 mlrd so'mni tashkil etib, 2025-yilning yanvar oyiga nisbatan 109,9 % ni tashkil etdi.


Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 332,4 mlrd so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 96,6%), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 2 619,0 mlrd so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 111,8 %), shundan, uyushmagan savdo tovar aylanmasi 326,9 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 107,8 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati (% da)

2026-yil yanvar



Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (2024-2026 yillar yanvar, ulushi foizda)




II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

2026-yil 1-fevral holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 3 367 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 30 ta, kichik korxona va mikrofirmalar soni 3 337 tani tashkil qildi.

Viloyat bo'yicha 2026-yilning yanvar oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi 2 268,7 mlrd so'mni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 21,7 % ga o'sdi.

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi umumiy hajmi 943,2 mlrd so'mni tashkil qilib, 2025-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 102,6 % ni, viloyatda jami ulgurji savdo hajmidagi ulushi 57,7 % ni tashkil etdi.


Ulgurji savdo hajmi dinamikasi (mlrd so'm)



Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar Pstdarg'om (155,4 %), Samarqand (134,3 %), Qo'shrabot

(133,8 %), Bulung'ur (65,4 %) tumanlari va Samarqand shahrida (148,6 %) kuzatildi.

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)




III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO HAJMI

2026-yil 1-fevral holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 2 982 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 10 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 2 972 tani tashkil qildi.

2026-yilning yanvar oyida umum ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 1 742,8 mlrd so'mga yetib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 25,9 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 60,7 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.

Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)





IV. METAMA'LUMOTLAR

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek, xalqaro ko'rsatmalar va tavsiyalar "Milliy hisoblar tizimi –2008", "Chakana va ulgurji savdo statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar" (BMT, 2008), Chakana tovar aylanmasining statistik kuzatuvi va uning miqdoriy ko'rsatkichini hisoblash bo'yicha uslubiy tavsiyalar hisobga olingan (MDH qo'mitasi, 2011) holda ishlatiladi.

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda hisoblangan.

V. ALOQADOR BOSHQA HAVOLA

[Ichki savdo aylanmasi](#)

Chop etishga mas'ul: Xizmatlar va savdo sohasi statistikasi bo'limi	Bo'lim boshlig'i: N.Abduraimov Tel: +998712308000 (3040)	Ijrochi: Tel: +99866 235 14 42 e-pochta: info@samstat.uz	Manzil: 140100, Samarqand sh., U.Tursunov ko'chasi, 82
--	---	--	--